



From the history of Turkic chamberlains who served the Samanids: Alptegin

Mokhlaroy ABDUKAMOLOVA¹

Alfraganus university

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 15 June 2025

Available online

25 June 2025

Keywords:

Alptegin,
Samanids,
Ghazna,
Ghaznavids,
ghulam,
political elite,
9th–10th century,
Central Asia,
Transoxiana,
Khurasan,
Balkh,
Siyasatnama,
Tarikh-i Bayhaqi,
Tarikh-i Yamini,
Zayn al-Akhbar,
military slavery,
Turkic commanders,
hajib,
sipahsalar,
independent rule,
Islamic statecraft,
court officials,
medieval generals.

ABSTRACT

The 9th–10th centuries mark a period of significant political and military transformations in Central Asia. One notable aspect of this era was the rise of Turkic commanders who served under the Samanid dynasty and gradually emerged as powerful political actors. Among them, Alptegin stands out for having risen through the ranks as a military slave (ghulam) and later establishing an autonomous political authority in Ghazna. This article explores Alptegin's career, his relations with the Samanids, his conquest of Ghazna, and his role in laying the foundation of the Ghaznavid state. Drawing on key historical sources such as Tarikh-i Bayhaqi, Zayn al-Akhbar, Tarikh-i Yamini, and Siyasatnama, this paper highlights the transformation of military slaves into political elites in early Islamic Central Asia.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss3-pp119-127>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ PhD Student, Fergana State University. E-mail: mokhlaroyabdukamolova@gmail.com

Somoniylarga xizmat qilgan turkiy hojiblar tarixidan: Alptegin

Kalit so'zlar:

Alptegin,
Somoniylar,
G'azna,
G'aznaviylar,
g'ulom,
siyosiy elita,
IX–X asr,
Markaziy Osiyo,
Movarounnahr,
Xuroson,
Balx,
Siyosatnoma,
Tarixi Bayhaqi,
Tarixi Yamini,
Zayn al-Axbor,
harbiy qullik,
turk amirlari,
hojib, sipohsolor,
mustaqil hokimiyat,
islom davlatchiligi,
saroy amaldorlari,
o'rta asr sarkardalari.

ANNOTATSIYA

IX–X asrlarda Markaziy Osiyo tarixida muhim siyosiy va harbiy o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, Somoniylar davlati tarkibida xizmat qilgan turk sarkardalarining siyosiy kuchga aylanishi bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ulardan biri — Alptegin bo'lib, u dastlab Somoniylar xizmatida g'ulom-harbiyning yuqori martabalariga ko'tarilgan, so'ng esa G'aznani egallab, u yerda mustaqil siyosiy hokimiyatni shakllantirgan. Mazkur maqolada Alptegin shaxsiyati, uning Somoniylar bilan munosabatlari, G'aznani zabt etishdagi harbiy-siyosiy faoliyati va G'aznaviylar sulolasining shakllanishiga qo'shgan hissasi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Ayniqsa, Tarixi Bayhaqi, Zayn al-Axbor, Tarixi Yamini, Siyosatnoma va boshqa muhim manbalar asosida Alpteginning o'rni aniq yoritiladi. Ushbu maqola Markaziy Osiyoda g'ulomlar tabaqasining siyosiy elita sifatida shakllanish jarayonini tushunishga xizmat qiladi.

Из истории тюркских хаджибов, служивших Саманидам: Алптегин

Ключевые слова:

Алптегин,
Саманиды,
Газна,
Газневиды,
гулом,
политическая элита,
IX–X века,
Средняя Азия, Мавераннахр,
Хорасан,
Балх,
Сиясатнаме,
Тарих-и Бейхаки,
Тарих-и Ямини,
Зайн ал-Ахбар,
военное рабство, тюркские командиры, хаджиб,
сипахсалар,
независимая власть,
исламское государственное управление,
придворные чиновники,
средневековые полководцы.

АННОТАЦИЯ

IX–X века в истории Средней Азии были временем значительных политических и военных перемен. Особенно примечателен рост политического влияния тюркских полководцев, служивших в государстве Саманидов. Одним из самых ярких представителей этого процесса был Алптегин, который, начав как гвардеец-гулом в Саманидской армии, сумел завоевать город Газна и утвердить там независимую власть. В статье рассматриваются его личность, отношения с саманидскими правителями, военные походы и вклад в формирование Газневидского государства. Анализ основывается на таких источниках, как Тарих-и Бейхаки, Зайн ал-Ахбар, Тарих-и Ямини и Сиясатнаме. Работа проливает свет на превращение гвардейцев-гуломов в политическую элиту раннесредневековой Средней Азии.

KIRISH

Somoniylarga xizmat qilgan turkiy hojiblardan biri Alptegin (uning nomi ba'zan Alptigin, Alp Tekin yoki Alp Takin deb ham yoziladi) dastlab qul sifatida faoliyatini boshlagan va keyinchalik mustaqil yangi sulola asoschisi sifatida tarixda qolgan shaxs. Somoniylar qo'shinining asosini turkiy qul askarlari (g'ulomlar) tashkil etgan. Zarurat tug'ilganda, ya'ni shimoldagi ko'chmanchilar bilan chegaralarda manfaatlar tutashgan paytlarda Somoniy amirlari dashtlarga yurishlarga boshchilik qilganlar. Masalan, amir Ismoil ibn Ahmad 893-yilda Talasga katta ekspeditsiya olib borgan va natijada qarluq turklarining poytaxti talon-taroj qilingan. Somoniylar qullar va chorva mollarini o'z ichiga olgan katta miqdordagi o'ljalarni olib kelishgan. Bu qullarning aksariyati Somoniylar sulolasi yoki boshqa musulmon kuchlari, jumladan Bag'doddagi xalifaning elita qo'shinlariga a'zo bo'lish niyatida edi. Chunki, musulmon dunyosidagi harbiy qullik boshqa qullik turlaridan, ayniqsa g'arbda amalda qo'llaniladigan qullikdan juda farq qilgan. Harbiy qullik o'z jamiyatlarining ijtimoiy-harbiy elitasi bo'lgan askarlar sinfini yaratdi. Bu odamlar yaxshi o'qitilgan, juda yaxshi maosh oladigan va o'z shaxsiy mulklariga, oilasiga ega edi. Ular faqat nomigagina qul edilar. Harbiy qullarning ishlari, jasorati, aql-zakovati va sadoqatiga qarab ko'tarilib, mukofotlangan. Keyinchalik hatto ma'lum hududlarni va qo'shinni boshqarish huquqiga ham ega bo'lganlar. Alptegin ana shunday qullardan biri edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

U haqida tarixiy manbalardan Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Gardiziyning "Zayn-ul axbor", Ibn al-Asirning "Al komil fit tarix", Abu'l-Fazl Bayhaqiyning "Tarixi Bayhaqi", Abu Nasr al-Utbiyning "Tarixi Yamini" asarlarida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Bulardan Nizomulmulk va Gardiziy asarlaridan nisbatan batafsilroq ma'lumotlarni olamiz lekin ushbu ma'lumotlar tanqidiy tahlilga muhtoj. Ibn al Asir, Narshaxiy asarlarida qisqa faktlar uchraydi. Abu Nasr al-Utbiy [2] va Abu'l-Fazl Bayhaqi [4] asarlari Subuqtegin, Sulton Mahmud va Mas'ud G'aznaviylar davrlariga bag'ishlangan hamda Alptegin haqidagi ma'lumotlar asosan, Subuqteginning hayoti va faoliyatini yoritish doirasida berilgan bo'lib, Alpteginning shaxsiy hayoti yoki siyosiy faoliyati haqida batafsil tafsilotlar keltirilmagan. Masalan, "Tarixi Yamini"da Alptegin haqida quyidagicha ma'lumot keltirilgan: "Alptegin, Somoniylar davlatida yuqori lavozimda xizmat qilgan turk sarkardasi bo'lib, keyinchalik G'aznani egallab, u yerda o'z hukmronligini o'rnatdi. U vafot etgach, uning o'rniga Subuqtegin tayinlandi."

Ushbu manbalarni qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish orqali Alptegin hayoti va faoliyatiga oid tafsilotlarni keltirib chiqarishimiz mumkin bo'ladi.

Alptegin hayoti va faoliyatiga oid hozirgi zamon tadqiqotchilari tomonidan ham bir qator ilmiy ishlar e'lon qilingan bo'lib, ulardan eng asosiylari C.E. Bosworth – "The Ornament of Histories" [12] nomli Gardiziy asarining izohli tarjimasini, Jürgen Paul – "Alptegin in the Siyāsāt-nāma"[11] ("Alptegin Siyosatnomada"). Ushbu maqola Alptegin obrazining tarixiy manbalarda, ayniqsa, Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida qanday tasvirlanganini tahlil qiladi. Muallif Alpteginni sodiq xizmatkor sifatida ko'rsatish orqali hukmdor va uning eng yaqin yordamchilari o'rtasidagi munosabatlar muammolarini yoritadi. Maqola Alpteginning tarixiy shaxsiyatidan ko'ra, axloqiy va siyosiy saboqlarni yetkazishga qaratilgan. "The Slave Who Founded an Empire"[13] Adam Ali tomonidan yozilgan ushbu maqolada hech qaysi manbaga ishora berilmagan bo'lsada, Gardiziy va

Nizomulmulk asarlari asosida yozilganligini taxmin qilish mumkin. Maqolada Alpteginning quldan imperiya asoschisigacha bo'lgan hayot yo'lini tasvirlaydi hamda uning Samaniylar xizmatidagi faoliyati, G'aznani egallashi va G'aznaviylar sulolasining asos solinishi haqida so'z yuritiladi. Minoru Inaba tomonidan yozilgan "A Venture on the Frontier: Alptegin's Conquest of Ghazna and its Sequel" [10] ("Chegaradagi tashabbus: Alpteginning G'aznani zabt etishi va uning davomi") maqolasida ham Alpteginning G'aznani zabt etishi va bu voqeaning keyingi tarixiy oqibatlari tahlil qilinadi. Alptegin, Samaniylar davlatining yuqori martabali harbiy amaldori bo'lib, siyosiy kurashlar natijasida G'aznaga yo'l oladi va u yerda mustaqil hokimiyat o'rnatadi. Bu harakat G'aznaviylar sulolasining asos solinishiga olib keladi. Juda ko'p manbalar asosida yozilgan ushbu maqolada, shuningdek, Alpteginning harbiy yurishlari, siyosiy strategiyalari va G'aznaning musulmon dunyosidagi o'rne haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Alpteginning Somoniylar xizmatidagi faoliyatidan oldin kelib chiqishi haqida hech narsa ma'lum emas. U somoniylar tomonidan sotib olingan turk edi va Somoniylar qo'shinida g'ulom sifatida xizmat qiladi. Alptegin dastlab amir Ahmad ibn Ismoil (hukmronligi 907-914) tomonidan sotib olingan, Nasr ibn Ahmad (hukmronligi 914-943)ga ham xizmat qilgan. Ammo uning faoliyati haqiqatan ham amir Nuh I (hukmronligi 943-954) davrida hojib ul-hujjob (qo'shin qo'mondoni) lavozimiga ko'tarilganidan so'ng, chindan ham avj oldi. U Nuh I vorisi Abdumalik (954-961 yillar hukmronligi) davrida yanada yuqori ko'tarildi. U shu amir davrida katta qudrat va nufuzga erishib, amirdan ham qudratliroq bo'lgan. Darhaqiqat, u amir Abdumalikni 961-yilda Xuroson hokimi va Xuroson qo'shinlarining bosh qo'mondoni etib tayinlashga va o'zining himoyachisi Abu Ali Muhammad Bal'amiyni o'ziga vazir qilib tayinlashga majbur qildi [6.61]. Mansur ibn Nuh Alpteginni Balx hokimi etib tayinlaydi va undan bunga javoban "men soliq yig'uvchi emas bosh hojibman" degan javob oladi [6.61] va saroyga bormay qo'yadi shundan so'ng uni strategik jihatdan muhim hudud hisoblangan Xurosonga Abu Mansurning o'rniga sipohsolor etib tayinlashga majbur bo'ladi.

IX asrdan XIX asrgacha musulmon dunyosi siyosati va harbiy sohalarida hukmronlik qilgan harbiy qullik institutida yuksalish tizimi bosqichma-bosqich va yuqorida aytib o'tilganidek, yaxshi xizmat, tajriba va sadoqatga asoslangan edi. Saljuqiylarning buyuk siyosatchisi va vaziri Nizomulmulk o'zining "Siyosatnoma" kitobida Alptegin xizmatida bo'lgan davrda Somoniylar davrida bu tizim qanday ishlaganini bayon qiladi. U aytadi: Bu Somoniylar davrida ham amalda bo'lgan tuzum. G'ulomlar ish stajiga va umumiy xizmatlariga ko'ra bosqichma-bosqich ko'tarilgan. Shunday qilib, bir g'ulom sotib olingandan so'ng, unga bir yil davomida zandanicha chopon va etik kiyib, piyoda xizmat qilish buyuriladi; va bu g'ulomga birinchi yilida yakka holda yoki omma oldida ot minishga ruxsat berilmagan va agar minganligi aniqlansa, u jazolangan. U etik bilan bir yillik xizmatni o'tab bo'lgach, chodirboshi qo'shin boshlig'i bilan gaplashadi va u podshohga xabar beradi; so'ng unga jilovi oddiy charmdan qilingan bir turk otini beradilar. Ot va qamchi bilan bir yil xizmat qilgandan so'ng, uchinchi yilida qilich beriladi. To'rtinchi yili ular unga minib o'tirganda bog'lab qo'ygan bir qalpoq va kamon berishadi. Beshinchi yilida ular yaxshiroq egar va yulduzli jilov, to'n va gurziga ega bo'ladi. Oltinchi yili soqiy yoki suvchi qilib, beliga qadah osiladi. Yettinchi yili chopon

beriladi. Sakkizinchisi yili ular unga cho'qqisi o'n olti qoziqli chodir berishdi va uning qo'shiniga yangi sotib olingan uchta g'ulom beriladi; shundan so'ng chodir boshlig'i (haylboshi) unvonini berilib, kumush sim bilan bezatilgan qora kigiz qalpoq va ganjkor chopon kiyadilar. Har yili uning kiyim-kechak va bezaklarini takomillashib, hojib unvoni beriladi uning martaba va mas'uliyatini oshirdilar va bu hol qo'shin boshlig'i bo'lguncha davom etadi. Qachonki, uning munosibligi, mahorati va jasorati hammaga ma'lum bo'lib, bir qancha ajoyib ishlarni amalga oshirib, o'rtoqlariga e'tiborli, xo'jayiniga sadoqatli ekani ma'lum bo'lgach, faqat o'ttiz besh-qirq yoshlarida amir qilib, viloyatga tayinlanadilar [7.101].

Somoniylar davrida g'ulomlar armiya yoki ma'muriyatda yuqori martabalarga ko'tarilishdan oldin o'zlarini, sadoqatlarini isbotlash va jangovar, siyosiy va ma'muriy qobiliyatlarini oshirish uchun yillar sarflashlari kerak edi. Shuning uchun bu harbiy qullardan biri martaba yoki amir darajasiga ko'tarilib, harbiy qismga qo'mondon yoki viloyat hokimi etib tayinlanganda, u tajribali askar, rahbar, boshqaruvchi va siyosatchi bo'la olar edi. Alptegin ham xuddi shunday edi.

Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida Alpteginga juda yuqori baho berilib, 35 yoshida Xurosonda sipohsolor lavozimini egallagan sadoqatli turk g'ulomi ekanligi va somoniylar davlati muhim shaxslaridan biri va hatto davlat tanazzulida uning somoniylarni tark etib ketishi sabab qilib ko'rsatiladi. Bundan tashqari u g'aznaviylar davlatini tashkil etgan va uning birinchi hukmdori sifatida qaraladi [7.105]. Uning aytishicha, Alptegin Somoniylar poytaxtida hasadgo'y saroy a'yonlari tomonidan o'ziga qarshi fitnalar qurboni bo'lgan. U bu fitnalar Abdulmalik vafotidan keyin emas, balki Nuh ibn Nasr (943-954 yillar hukmronligi) vafot etganida sodir bo'lganligini noto'g'ri ta'kidlaydi. Nizomulmulkning yozishicha, bu amir vafot etgach, unga Buxorodagi vazir Abu Ali Muhammad Balamiy va uning tarafdorlaridan iborat saroy a'yonlaridan yangi hukmdor tayinlash haqida xabar keladi. Ikki variant Nuh ibn Nasrning 30 yoshli ukasi yoki uning 16 yoshli o'g'li edi. Alptegin 30 yoshli akaning yetukligi va tajribasi tufayli bu lavozimga ko'proq mos kelishini maslahat berdi. Vaholanki, saroy a'yonlari amirning yosh o'g'lini taxtga o'tkazishgan edi. Alpteginning nomasi malikzoda qo'lga yetadi, va ko'nglida unga nisbatan adovat paydo bo'ladi [7.105].

Fikrimizcha bu ma'lumotda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilgan. Chunki Nuh ibn Nasr vafot etganidan so'ng amirning taxtga o'tirgan o'g'li Abdulmalik bo'lib [5.145], manbalarda uni 10 yoshida taxtga o'tirganligi va Alptegin bilan munosabatlari yaxshi bo'lganligi, Abdulmalik davrida hokimiyatni o'z qo'lga olganligi qayd etilgan [3.309]. 956-yil Bakr ibn Malik Xuroson noibligidan chaqirtirilib, amir saroyida Alptegin tomonidan qatl etilganligi [8.46] ham bu paytda uning saroydagi ahamiyatini ko'rsatadi. Keyinchalik amirning harbiy boshliqlar ta'siridan qutulishga harakat qilishi [3.310] natijasida vaziyat o'zgaradi.

Agar vafot etgan amir Abdulmalik bo'lsa Alptegin uning akasini emas o'g'lini qo'llagan [3.311] (lekin shunda ham Abdulmalikning o'g'li 16 yosh bo'lmaydi chunki Abdulmalik baxtsiz hodisa tufayli otidan yiqilib vafot etganida 17 yoshda edi [1.53]) taxtga esa ukasi Mansur ibn Nuh o'tiradi. Alptegin va "uning maslahatisiz hech bir ish qilmaydigan" [6.62] safdoshi vazir Abu Ali Muhammad Bal'amiy amir Abdulmalikning o'g'li Nasrni taxtga o'tkazib uni nomidan davlatni boshqarishni reja qiladilar lekin Somoniylar oilasi, ularning muholifatlari va poytaxt Buxorodagi podshoh gvardiyasi yosh shahzodani chetlab, uning o'rniga Mansur Inni qo'ydi. Balamiy yangi tuzumga qo'shildi va

Alptegin geografik jihatdan poytaxtda bo'layotgan voqealardan uzoqda bo'lgani uchun hech narsa qila olmadi. Alptegin Xurosonda yakkalanib qoladi. Nasr esa bir kungina humronlik qildi. Agar "Siyosatnoma"da aytilganidek Alptegin Mansur ibn Nuhni qo'llaganida oralaridagi adovatga boshqa sabab keltirilishi kerak edi.

Saroy amaldorlari bo'lajak hukmdor Mansur ibn Nuh va Xurosonda bir necha yillardan beri Xurosonda hokimlik qilayotgan Alpteginning orasini buzishni maqsad qilgandi. Ular unga Alpteginni shaxsan amirga qasamyod qilish uchun chaqirishni va bu o'ta qudratli vassaldan xalos bo'lish uchun kelganida hibsga olinib o'ldirishni maslahat berishdi [7.105].

Amir Mansur ibn Nuhning rejalaridan xabardor Alptegin Jayhun qirg'og'iga borib amaldorlarini va Xuroson lashkarini Buxoroga yuboradi, o'zi esa Hindistonga g'azot uchun ketishini, buning sababini esa qariganida o'zi bir umr xizmat qilgan sulola vakili bilan jang qilishini istamaganligidan deb keltiradi va ketish oldidan askar to'plash uchun bir muddat Balxda qoladi [7.106]. O'sha paytda u 30 000 kishining boshida turgan va Nizomulmulk aytishicha, 100 000 qo'shin yig'ib, Buxoroni o'z qo'lga olishi mumkin edi. Ammo Alptegin "aslzoda xizmatkor" bo'lib, o'z yigitlariga saltanatdan ketish niyatida ekanligini ma'lum qildi va o'z qo'shinini Buxoroga jo'natib, ularni yangi amirga bay'at qilishga undadi. U Somoniylar saltanatini tark etib, 2200 kishilik turkiy g'ulom qul askarlaridan iborat shaxsiy mulozimlari bilan sharqqa yo'l oldi. U o'z bayrog'i ostida yana 800 otliq to'pladi va muqaddas urush olib borish uchun sharqqa yo'l oldi.

Nizomulmulk Alptegin ketayotgan paytda naqadar boy bo'lganiga e'tibor qaratadi. Uning qayd etishicha, "Xuroson va Movarounnahrda 500 qishloqqa ega bo'lgan, Somoniylar saltanatida uning uylari, bog'lari, mehmonxonalari, hammomlari va fermalari bo'lmagan shaharlari ham bo'lmagan, bundan tashqari uning 1 million qo'ylari, 100 mingdan ortiq mol va otlari bo'lgan". Bu 100% to'g'ri bo'lmasligi mumkin, ammo bu bizga cho'qqiga chiqqan turk hojiblarining nihoyatda boy va qudratli bo'lishlari anglatadi.

Somoniylar amiri yana o'z saroy a'yonlari talabiga ko'ra, Alpteginni ta'qib qilish uchun 16 ming kishilik qo'shin yuboradi, ammo ular tuzoqqa ilinadi. Alptegin Xulm dovoni degan darada qarorgoh qurgan. U o'z qo'shinini 1000 kishidan iborat uch qismga bo'ldi. U bu bo'linmalardan ikkitasini daraning o'ng va chap tomonidagi jarlarda yashirin joylarga joylashtirdi. Qolgan 1000 tasi bilan dara bo'ylab harakatlanib, chekinayotgandek ko'rsatdi. Somoniylar qo'shinlari dara orqali Alpteginni quvib o'tishdi. Somoniylar qo'shinlarining yarmi narigi tarafga o'tib bo'lgach, Alptegin qo'shinlarini jangovar safda ko'rdilar va ular o'zlarining jangovar saflarini tuza olmay turib, ularga hujum qildilar. Bu vaqtda jangga qo'shilish uchun daradan oshib o'tmoqchi bo'lgan askarlar orqa tomondan Alpteginning yashirin pistirmachilari tomonidan hujumga uchradi. Somoniylar qo'shini butunlay tor-mor qilindi va Alptegin va uning qo'shinlari tashlab ketilgan qarorgohni egallab oldilar. Ular olgan o'lja ot, xachir, oltin, kumush, ipak va qullar edi [7.105].

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida ham ushbu voqea haqida qisqa ma'lumot uchraydi: u Jayhunddan o'tib, amirni qo'lga olmoqchi bo'ladi lekin kelgan qo'shinni ko'pligini ko'rib ortga qaytadi. Ammo amir tomonidan Muhammad ibn Abdurazzoqqa uni Nishopurga kirgizmaslik tayinlanadi va Alptegin Balxga chekinadi. Unga qarshi Mansur ibn Nuh Ashas ibn Muhammadni yuboradi va jangda yengilgan Alptegin G'aznaga chekinadi. Ashas ibn Muhammad ham G'aznaga borib u yerni ham egallaydi. Alptegin Balxga qochadi ko'p urushlardan so'ng Alpteginga amir unga omonlik beradi va xizmatga qaytishi keltiriladi [1.54]. Asar somoniy hukmdorlar tarixiga bag'ishlab yozilganligi va

aynan Abdumalik davridan keyingi davrlar asarning asl muallifi hisoblangan Narshaxiy tomonidan emas keyingi tarjimonlar tomonidan keyinchalik qo'shilganligi inobatga olgan holda voqealar rivoji Alpteginning taslim bo'lishi bilan yakunlangan degan fikrdamiz.

Bu borada Ibn al Asirning "Al komil fit tarix" asarida 962- yilda Mansur ibn Nuh Alpteginni xuzuriga chaqiradi lekin u kelmaydi bunga javoban amir lashkar jo'natadi. Alptegin ularni yengib qo'mondonlarini asir oladi ular orasida xatto amirning tog'asi ham borligi haqidagi qisqa ma'lumot keltiriladi, xolos [9.469].

Alptegin G'azna tomon yo'l oldi va uni qamal qildi. Nizomulmulk shuni eslatib o'tadiki, Alptegin o'z qo'shinlariga G'azna mahallasidagi qishloqlarni talon-taroj qilishni taqiqlovchi bayonot chiqargan. Nizomulmulk, Alptegin askarlaridan biri bir dehqondan tovlamachilik qilib olgan bir qop somon va tovuqni olib, qarorgohga qaytganini aytadi. Alptegin unga tanbeh berdi, u armiyaga yaxshi maosh to'layotganligini, ular dehqonlarni qo'rqitishdan ko'ra, barcha ehtiyojlarini sotib olishlari kerakligini aytdi. Keyin u askarni qatl qildi va hamma ko'rishi uchun uni yo'l chetiga osib qo'ydi. Bu Alptegin mintaqani egallab olganida qarshilik ko'rsatmagan mahalliy aholiga ma'qul kelgandek tuyuladi.

Shu tariqa G'aznani egallab, bu yerda qarorgoh qilib Hindistonga yurishlar qilib bir qancha hududlarni egallaydi va shu yurishlar chog'ida 963-yilda vafot etadi [7.112]. Undan so'ng ishlarini o'g'li bo'lmaganligi uchun o'zi sotib olib, yoshligidan tarbiyalagan turk g'ulomi Sobuqtegin davom ettiradi va G'aznaviylar sulolasiga asos soladi. U Zobuliston raisining qiziga uylanib, undan sulolaning eng ko'zga ko'ringan vakili Mahmud ibn Sobuqtegin dunyoga keladi [7.113]. Lekin Gardiziyning "Zayn-ul axbor" asarida keltirilishicha, Alptegin 963-yili G'aznani bosib olganidan ko'p o'tmay vafot etadi. Uning o'rniga 963-966-yillarda hukmronlik qilgan o'g'li Abu Ishoq Ibrohim taxtga o'tirdi. Abu Ishoq merosxo'rsiz vafot etdi va uning o'rniga qo'shin zobitlaridan biri Bilgategin (yoki Bilgetigin) 975-yilgacha hukmronlik qildi va u ham farzandsiz vafot etdi. Boshqa bir zobit Bo'ritegin (yoki Bōritigin) hukmronlik qilib saylandi. U 977-yilga qadar hukmronlik qildi va uni ag'darib, o'rniga Alpteginning eng ishonchli qullari va zobitlaridan biri, shuningdek, uning kuyovi bo'lgan Sobuqtegin tayinlandi. Sobuqtegin ko'pincha G'aznaviylar sulolasining haqiqiy asoschisi sifatida e'tirof etiladi. G'aznaviydan keyingi hukmdorlarning hammasi uning avlodlari edi.

Shuning uchun ham Alptegin haqidagi ma'lumotlarni G'aznaviylar sulolasi tarixiga oid manbalarda ko'proq uchratamiz. Xususan, Gardiziyning "Zayn-ul axbor" asarida Alpteginning Somoniylar xizmatidagi faoliyati, G'aznani zabt etishi va G'aznaviylar davlatiga asos solganligi haqida yozadi. Uning yozishicha, Alptegin dastlab Somoniylar saroyida xizmat qilgan turk quli bo'lib, o'zining sadoqati va harbiy mahorati bilan yuqori lavozimlarga ko'tarilgan. U Somoniylar amiri Nuh I davrida (943–954) saroy qo'riqchilari boshlig'i (hajib al-hujjab) etib tayinlanganligi, keyinchalik, Nuh I ning o'g'li Abdulmalik I (954–961) davrida Balx hokimi va 961-yilda Xuroson sipohsoloriga aylanganligi ta'kidlanadi [6.62].

Abdulmalik I vafotidan so'ng, Alptegin va uning ittifoqchilari Abdulmalikning yosh o'g'li Nasrni taxtga chiqarishga harakat qilishgan. Biroq, boshqa kuchli amaldorlar Mansur I ni qo'llab-quvvatlab, uni yangi amir etib tayinlashgan. Mansur I Alpteginni Xuroson hokimligidan chetlatgan.

Bu voqealardan so'ng, Alptegin o'zining turk askarlari va eronlik g'oziylar bilan Balxga yo'l olgan va 962-yilda Alptegin Kobul hukmdori Kobulshoh bilan qarindosh bo'lgan mahalliy hukmdor Abu Bakr Lavikdan G'azna shahrini bosib olishga muvaffaq

bo'ldi. Somoniylar G'aznadagi Alpteginni o'z hokimi va vassali sifatida tan olish bilan kifoyalandilar. Alptegin G'aznani egallashga muvaffaq bo'lgan bo'lsa-da, keyingi o'n besh yil davomida u va uning vorislari Kobuldagi qarindoshlari yordamida o'z hududlarini qaytarib olishga uringan lauiklarga qarshi tinimsiz kurash olib borishlariga to'g'ri keldi. Darhaqiqat, bir payt Alpteginning o'g'li Abu Is'hoq Ibrohim G'aznani lauiklarga boy berib, uni faqat Buxorodan Somoniylar yordami bilan qaytarib olishga muvaffaq bo'ldi. Aynan shuning uchun ham G'azna hukmdorlari 997-yilda Alpteginning to'rtinchi vorisi Sobuqtegin vafot etgunga qadar Somoniylarni o'z hukmdorlari deb tan olganlar.

Bayhaqiyning "Tarixi Mas'udiy" asarida "Alptegin Somoniylar xizmati davrida o'zining harbiy qobiliyatlari bilan ko'plab g'alabalarga erishdi. G'aznaning strategik ahamiyatini anglab, bu hududni o'z qo'liga oldi va bu bilan yangi davrning boshlanganini bildirdi." [4.88] jumalari qayd etilganligi G'aznaviylar ham Alpteginni sulola rivoji uchun qanchalik muhim o'rin egallaganlihdan dalolat beradi.

Sobuqtegin hukmronligi davrida G'aznaviylar hududi Afg'onistondagi Hindukushning janubida va bugungi Pokiston hududidagi Hind daryosigacha bo'lgan sharqda kengayib bordi. U hali ham Somoniylarning vassali edi, lekin bu vaqtga kelib uning hukmdorlari zaiflashib, ularning imperiyasi qo'zg'olon va ichki tartibsizliklar bilan band edi. Sobuqtegin va uning o'g'li Mahmud 994-yilda Somoniylarga tartib o'rnatishda yordam berdi. Mukofot sifatida Mahmud Xuroson hokimi etib tayinlandi.

999-yilda Mahmud G'aznaviylar taxtiga o'tirar ekan, Somoniylar kuchga ega emas edi. Ular janub va g'arbdan G'aznaviylar, sharqdan esa qoraxoniylar turklari bilan o'ralgan edi. 999-yilda Mahmud Xurosonni qo'shib oldi va bu hududni G'aznaviylar mulkiga qo'shib oldi, Qoraxoniylar esa Movarounnahrni egallab, Somoniylarga chek qo'ydi. Mahmud sulton unvonini olgan birinchi musulmon hukmdor hamdir.

G'aznaviylar imperiyasi Alptegin vafotidan 40 yil o'tib o'zining qudrati va shon-shuhrat cho'qqisiga ko'tarilgan bo'lsa-da, aynan shu hojib XI asrning eng qudratli harbiy imperiyalaridan biriga aylanishiga asos solgan. Garchi bu imperiyani boshqargan sulola bevosita Alptegin naslidan bo'lmasa-da, G'aznaga hukmronlik qilib, uning hududini kengaytirib, oxir-oqibat sulola o'rnatishga ko'tarilgan zobit uning quli va xonadonining a'zosi edi. Alptegin o'zini Alpteginning o'g'li deb bilgan Sobuqteginni tarbiyalagan, o'qitgan, ko'targan va ta'minlagan. Ko'pincha harbiy qullar (yoki hech bo'lmaganda hukmdorning shaxsiy qo'riqchilari) va ularning xo'jayinlari yoki homiylari o'rtasidagi munosabatlar otaning o'g'illariga bo'lgan munosabatiga o'xshardi va qullarning o'zlari bir-birlarini aka-uka deb bilishardi. Binobarin, Sobuqtegin Alptegin bilan qon-qarindosh bo'lmasa-da, u o'zining sobiq homiysi merosini (ongli ravishdami yoki yo'qmi) davom ettirar va bu merosni o'z vorislariga topshirar edi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Alptegin dastlab Somoniylar davlatiga xizmat qilgan. U bu davrda harbiy lider sifatida tanilgan, o'zining harbiy mahorati bilan e'tiborni jalb qilgan. Somoniylar davlatining ichki nizolari, zaiflashuvi hamda Alpteginning Xuroson va uning atrofidagi hududlarda kuchli ta'sirga ega bo'lishi uning mustaqil harakat qilishi uchun imkoniyat yaratdi va G'aznaviylar davlatining tashkil etilishida muhim rol o'ynaydi. Alptegin Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin egallagan shaxsdir. Uning Somoniylar davlati tarkibidagi faoliyati, G'aznani egallashi va G'aznaviylar sulolasiga asos solgan

siyosiy qadamlarining ta'siri chuqur va uzoq muddatli bo'ldi. U Somoniylar qudratining zaiflashuvi fonida mustaqil kuch sifatida tarix maydoniga chiqqan ilk turk sarkardalaridan biri bo'lib, O'rta asr musulmon dunyosining siyosiy manzarasiga sezilarli hissa qo'shdi.

Bundan tashqari, Alptegin Islom dinini tarqatishda ham o'zining katta hissasini qo'shdi. Keyinchalik uning Hindistonga yurishlarini davom ettirgan G'aznaviylar davlatining hukmronligi ostida Islom dini va madaniyati keng tarqaldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А. Расулев таржимаси. Ziyo.uz kutubxonasi.
2. Abu Nasr Utbiy. Kitobi Yamini. Translated from the Persian version of the contem for arly arabic chronicle of Al Utbi, by the rev. James Reynolds, b.a. – London: Printed for the oriental translation fund of Great Britain and Ireland. 1891. – 520p.
3. Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. 1 – Москва: Восточная литература, 1963.
4. Байхаки, Абу-л-Фазл. История Мас'уда(1030-1041) / Пер. с перс., введ., коммен. и прилож. А.К.Арендса. – М.: Наука, 1969.
5. Босворт К.Э. Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеологии. Перевод с английского и примечания П.А. Грязневича. Москва: Наука, 1971.
6. Гардизи, Абу Саид. Зайн ал-ахбар. Украшение известий. Раздел об истории Хорасана / перевод с персидского языка А.К.Арендса. Введение, комментарии и указатели Л.М.Епифановой. – Ташкент: Фан, 1991. – 176с.
7. Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулук). Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳид ва Афтондил Эркинов. Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.
8. Юлдашев С., Меликўзиев У. Сипоҳсолор Бакр Фарғоний // ФДУ: Илмий хабарлар. 2018. – № 2.
9. Ibnu'l Esir. Islam tarihi. El Kamil Fi't Tarih Tercumesi. / Ceviren Yunus Apaydin. Cilt 9. Istambul: Turkiyat matbaacilik ve nesriyat, 1986. 469 s.
10. Inaba, Minoru. "A Venture on the Frontier: Alptegin's Conquest of Ghazna and its Sequel". Medieval Central Asia and the Persianate World: Iranian Tradition and Islamic Civilisation, tahrirchilar: Andrew Peacock va Deborah Tor, I.B. Tauris, 2015, s.108–128
11. Paul, Jürgen. "Alptegin in the Siyāsāt-nāma." In Islamic Political Thought and Legitimacy: Proceedings of the Fifth European Conference of Iranian Studies, edited by B. G. Fragner, C. Jamzadeh, and G. Veinstein, Wiesbaden: Reichert Verlag, 2001, s. 299–313.
12. https://erenow.org/postclassical/ornament-of-histories-history-eastern-islamic-lands-ad-650-1041/6.php?utm_source=chatgpt.com
13. <https://www.medievalists.net/2020/08/the-slave-who-founded-an-empire/>
14. <https://erenow.org/postclassical/medieval-central-asia-and-the-persianate-world/6.php>